

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 255 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TALIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanov Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymurotova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmizayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
Амантурова Дилбара Кыдыкбековна	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
Асрарова М.У.	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
Karimov Inomjon Ortikbaevich	



UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH



Karimov Inomjon Ortikbaevich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Iqtisodiyot va ko'chmas mulk kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Maqolada uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmlarini joriy etish orqali investitsion xavfsizlikni ta'minlash hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda uy-joy qurilishining yagona hayotiy sikli tamoyili asosida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy va institutsional jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, ulushli qurilish jarayonida investorlar va ulushdorlarning huquqlarini himoya qilishda eskrou hisobvaraqlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eskrou mexanizmlarini joriy etish qurilish bozorida moliyaviy intizomni mustahkamlash, risklarni kamaytirish hamda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: eskrou mexanizmi, uy-joy qurilishi, investitsion xavfsizlik, moliyaviy shaffoflik, ulushli qurilish, loyihaviy moliyalashtirish, qurilish bozori.

Abstract. This article analyzes the issues of ensuring investment security and improving financial transparency in the housing construction sector through the introduction of escrow mechanisms. The study examines the economic and institutional aspects of project financing mechanisms based on the principle of the unified life cycle of housing construction. It also highlights the importance of escrow accounts in protecting the rights of investors and equity holders in shared construction projects. The research findings demonstrate that the introduction of escrow mechanisms helps strengthen financial discipline in the construction market, reduce risks, and increase the investment attractiveness of the sector.

Keywords: escrow mechanism, housing construction, investment security, financial transparency, shared construction, project financing, construction market.

Аннотация. В статье анализируются вопросы обеспечения инвестиционной безопасности и повышения финансовой прозрачности в сфере жилищного строительства посредством внедрения механизмов эскроу. В исследовании рассматриваются экономические и институциональные аспекты механизмов проектного финансирования на основе принципа единого жизненного цикла жилищного строительства. Также раскрывается значение эскроу-счетов в защите прав инвесторов и дольщиков в процессе долевого строительства. По результатам исследования обосновано, что внедрение механизмов эскроу способствует укреплению финансовой дисциплины на строительном рынке, снижению рисков и повышению инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: механизм эскроу, жилищное строительство, инвестиционная безопасность, финансовая прозрачность, долевое строительство, проектное финансирование, строительный рынок.

KIRISH

Uy-joy qurilishi sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soha nafaqat aholining turmush darajasini oshirish, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda investitsion jarayonlarni faollashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishi bozorini rivojlantirish, uy-joy fondini kengaytirish hamda aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uy-joy qurilishi sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish hamda qurilish jarayonida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

So'nggi yillarda uy-joy qurilishi jarayonida ulush kiritish asosida moliyalashtirish tizimi keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizim qurilish loyihalarini amalga oshirishda investorlar va fuqarolarning mablag'larini jalb qilish imkonini berishi bilan birga, ayrim hollarda moliyaviy xavflar, mablag'larning maqsadsiz sarflanishi hamda qurilish obyektlarining belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilmasligi kabi muammolar yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Natijada ulushli qurilish jarayonida investorlar va ulushdorlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda qurilish bozorida ishonch muhitini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, uy-joy qurilishi sohasida ulushli qurilish bilan bog'liq ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim pudratchi tashkilotlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida fuqarolarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazilgan holatlar aniqlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu jarayonlar natijasida jami 2044 ta uy-joy bilan bog'liq masalalar yuzaga kelgan bo'lib, 90 ta pudratchi tashkilot faoliyati yuzasidan sud organlariga murojaat qilingan. Mazkur holatlar bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanib, jismoniy shaxslarga 15,5 milliard so'mdan ortiq mablag' qaytarilishi ta'minlangan [2]. Bu kabi holatlar uy-joy qurilishi bozorida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda qurilish jarayonida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida uy-joy qurilishi sohasida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday mexanizmlardan biri eskrou tizimi hisoblanadi. Eskrou hisobvaraqlari investorlarning mablag'larini maxsus bank hisobvaraqlarida saqlash orqali qurilish loyihalarining moliyaviy nazoratini kuchaytirish, mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda qurilish jarayonidagi risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm doirasida quruvchi va ulushdor o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar bank nazorati asosida amalga oshiriladi. Bu esa qurilish bozorida shaffoflikni ta'minlash hamda investorlar ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda uy-joy qurilishida eskrou mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda va ushbu tizim qurilish loyihalarini moliyalashtirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham uy-joy qurilishi bozorini yanada tartibga solish hamda ulushli qurilish jarayonida investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida ushbu mexanizمنى joriy etishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar shakllantirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PF-11-son Farmoni bilan turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurishda eskrou hisobvaraqlaridan foydalanish mexanizmini joriy etish, shuningdek, uy-joy qurilishining "yagona hayotiy sikli" tamoyilini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab berildi [3].

Shu nuqtai nazardan, uy-joy qurilishida eskrou mexanizmlarini joriy etish orqali investitsion xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda ulushdorlar manfaatlarini himoya qilish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy qurilishi sohasida ulushdorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish loyihalarining moliyaviy shaffofligini ta'minlash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, moliyaviy vositachilik tizimlari, investitsiya xavflarini kamaytirish mexanizmlari hamda ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni ta'minlashda eskrou mexanizmining ahamiyati ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Moliyaviy vositachilik va bank tizimining institutsional mexanizmlarini o'rganishda Franklin Allen va Douglas W. Diamond tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur olimlar moliyaviy institutlar orqali amalga oshiriladigan vositachilik operatsiyalari investorlar mablag'larini himoya qilishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar [4]. Ularning ilmiy ishlarida eskrou hisobvaraqlari moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida talqin qilinadi.

Moliyaviy bozorlar samaradorligi va institutsional mexanizmlar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Raghuram G. Rajan hamda Nobel mukofoti laureati Joseph Stiglitz o'z ilmiy ishlarida axborot assimetriyasi sharoitida



moliyaviy vositalarning ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning fikricha, eskrou mexanizmi shartnoma ishtirokchilari o'rtasida ishonchni mustahkamlash hamda investitsiya xavflarini kamaytirishda muhim institutsional vosita hisoblanadi [5].

Ko'chmas mulk moliyasi sohasida David Ling va William B. Brueggeman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eskrou hisobvaraqlari ko'chmas mulk bitimlari jarayonida xaridor va sotuvchi o'rtasidagi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rib chiqilgan [6]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, eskrou tizimi ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni oshirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida, xususan Rossiya Federatsiyasida ham ulushli qurilish tizimida eskrou mexanizmini joriy etish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, T. S. Kolmykova uy-joy qurilishida eskrou hisobvaraqlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan bo'lsa, A. N. Moiseev bank tizimida eskrou hisoblarining ishlash mexanizmi hamda ularni tartibga solish masalalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlarda eskrou mexanizmi ulushdorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish sohasidagi moliyaviy xavflarni kamaytirishning samarali instrumenti sifatida baholanadi [7].

O'zbekiston sharoitida ham uy-joy qurilishi sohasida ulushdorlar mablag'larini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Nigmatov Akbarjon Anvarovich tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda uy-joy qurilishida eskrou mexanizmini joriy etishning iqtisodiy va institutsional jihatlarini tahlil qilingan. Muallifning fikriga ko'ra, eskrou hisobvaraqlarini joriy etish qurilish loyihalarining moliyaviy shaffofligini oshirish, ulushdorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish bozorida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish masalalarini o'rganishda Sh. N. Zaynutdinov va R. I. Nurimbetov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiyotda moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlashi investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekani ta'kidlangan [9].

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eskrou mexanizmi ko'chmas mulk bozorida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, ulushdorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish loyihalarining shaffofligini oshirishda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmni O'zbekiston sharoitida samarali joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmini joriy etish orqali ulushdorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish loyihalarining moliyaviy shaffofligini ta'minlash masalalarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosini moliyaviy vositachilik, investitsiya jarayonlari hamda ko'chmas mulk bozorini rivojlantirishga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali eskrou mexanizmining iqtisodiy mohiyati, uy-joy qurilishi jarayonidagi roli hamda ulushdorlar mablag'larini himoya qilishdagi ahamiyati o'rganildi. Shuningdek, uy-joy qurilishi sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, eskrou mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishi sohasini modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash hamda fuqarolarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu sohada amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar uy-joy qurilishi jarayonini yanada takomillashtirish hamda investorlar va ulushdorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PF-11-son Farmonida uy-joy qurilishi jarayonini loyihalashtirishdan boshlab foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi "Uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyilini joriy etish belgilangan. Mazkur yondashuv qurilish jarayonida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, ulushdorlar huquqlarini himoya qilish hamda qurilish loyihalarini samarali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi [1].

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uy-joy qurilishi bozorining kengayishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti yillik o'rtacha 5,9 foizga o'sdi. Ushbu iqtisodiy o'sish aholining real daromadlari ortishi bilan hamohang kechib, mazkur davrda aholining real umumiy daromadlari o'rtacha 6,8 foizga oshgan [2]. Bu esa uy-joy bozorida talabning ortishiga hamda qurilish sohasida investitsion faollikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Demografik omillar ham uy-joy bozorining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2019–2024-yillar davomida mamlakat aholisi soni 33,3 million nafardan 37,5 million nafargacha oshdi. Prognozlariga ko'ra, 2040-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 49,5 million nafarga yetishi kutilmoqda [3]. Natijada uy-joy fondini kengaytirish hamda yangi turar-joy majmualarini qurishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur demografik jarayonlar uy xo'jaliklari tarkibining o'zgarishi bilan ham bog'liq. Tahlillarga ko'ra, uy xo'jaliklarining o'rtacha tarkibi 5,0 nafardan 4,7 nafargacha kamayishi natijasida ularning umumiy soni 9,8 milliongacha yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa har yili kamida 150–160 mingta yangi uy-joy qurilishi zarurligini ko'rsatadi [10]. Shu bilan birga, maktab yoshidagi bolalar sonining ortishi yangi ta'lim muassasalari qurilishini, talabalik yoshidagi yoshlar sonining ko'payishi esa talabalar turar joylari va ijara uylariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda.

2019–2024-yillar davomida uy-joy qurilishi hajmi ham sezilarli darajada oshdi. Jumladan, mazkur davrda har yili o'rtacha 15–17 million kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi. Natijada aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi 1 kishi hisobiga o'rtacha 18,9 kvadrat metrni tashkil etdi [11]. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy uy-joy qurilishining qariyb 60 foizi hanuzgacha yakka tartibdagi uy-joylar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa ko'p kvartirali uy-joy qurilishi bozorini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ko'p kvartirali uy-joy qurilishi jarayonida ulush kiritish asosidagi moliyalashtirish tizimi keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizim qurilish loyihalarini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarning investitsiya mablag'larini jalb qilish imkonini yaratib, qurilish bozorining rivojlanishida muhim moliyaviy instrument sifatida xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ulushli qurilish tizimida mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri quruvchi tashkilotlarga o'tkazilishi ayrim moliyaviy risklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, mablag'larning maqsadsiz sarflanishi, qurilish muddatlarining buzilishi hamda investorlar huquqlarining yetarli darajada himoyalansizligi kabi muammolar kuzatilmoqda [12].

Mazkur holatlar qurilish sohasida investitsion xavflarni kamaytirish hamda investorlar manfaatlarini himoya qilishning yangi institutsional mexanizmlarini joriy etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmini joriy etish muhim institutsional yechim sifatida qaralmoqda. Eskrou hisobvaraqlari ulushdorlarning mablag'larini vakolatli tijorat banklarida saqlash orqali qurilish loyihalarining moliyaviy nazoratini kuchaytirish hamda mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash imkonini beradi.

Eskrou mexanizmi doirasida investor mablag'lari bevosita quruvchi tashkilotga emas, balki vakolatli tijorat bankida ochilgan maxsus hisobvaraqda jamlanadi. Qurilish ishlari loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq bajarilib, obyekt belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgandan so'nggina ushbu mablag'lar quruvchiga o'tkaziladi. Bunday yondashuv investor mablag'larini yo'qotish xavfini sezilarli darajada kamaytirib, qurilish jarayonida moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi [13].

Shuningdek, eskrou tizimi qurilish loyihalarini moliyalashtirish jarayonida tijorat banklarining faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunda qurilish obyektlari moliyalashtirilishi quruvchining o'z mablag'lari, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kredit mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Muhim jihati shundaki, qurilish ishlarining kamida 30 foizi quruvchining o'z mablag'lari hisobidan bajarilgandan so'ng bank kreditlari ajratilishi quruvchi tashkilotlarning moliyaviy mas'uliyatini oshiradi va qurilish loyihalarining barqaror amalga oshirilishini ta'minlaydi [14].

Bundan tashqari, eskrou hisobvaraqlarida jamlangan mablag'lar hajmiga qarab kredit foiz stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirib borilishi investitsion rag'batlantirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ushbu mexanizm banklar uchun kredit risklarini kamaytirgan holda qurilish loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uy-joy qurilishi jarayonida shaffoflikni oshirish maqsadida "Shaffof qurilish" axborot tizimi doirasida yaratilgan elektron platforma ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur platforma orqali qurilish obyektlari, loyiha-smeta hujjatlari, ruxsatnomalar hamda quruvchilarning faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar ochiq e'lon qilinadi. Bu esa ulushdorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilib, qurilish bozorida ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi [15].


Qurilish korxonalarida investitsion faoliyatni samarali tashkil etishda jismoniy shaxslarning investitsion mablag'larini jalb etish bilan bog'liq risklarni kamaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Amaldagi amaliyotda mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri quruvchiga o'tkazilishi investitsiya mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, qurilish muddatlarining buzilishi hamda investorlar huquqlarining yetarli darajada himoyalansizligi kabi xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda ushbu risklarni kamaytirishning institutsional jihatdan takomillashtirilgan mexanizmi sifatida investitsiya mablag'larini qurilish kompaniyasining vakolatli tijorat bankida ochilgan maxsus eskrou hisobvaraqlarida jamlash hamda ulardan foydalanishni qurilish obyektining davlat texnik nazorat organlari tomonidan tasdiqlangan qurilish bosqichlariga bog'lash asoslab berilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, quruvchi tashkilotlarning mablag'lardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish huquqi cheklanadi va moliyalashtirish jarayoni banklar tomonidan amalga oshiriladigan loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi orqali nazorat qilinadi.



Taklif etilgan model O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan "Uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyiliga to'liq mos keladi hamda ulushdorlarning mablag'lari faqat notarial tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ulushli shartnomalar asosida eskrou hisobvaraqlariga deponentlanishini nazarda tutadi. Qurilish obyektining qurilish-montaj ishlari yakunlanib, belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgandan so'nggina eskrou hisobvarag'ida jamlangan mablag'lar avvalo quruvchining kredit majburiyatlarini so'ndirishga, qolgan qismi esa quruvchi tashkilotga o'tkaziladi.

Natijada jismoniy shaxslarning investitsion mablag'larini yo'qotish xavfi sezilarli darajada kamayadi, qurilish jarayonida moliyaviy intizom kuchayadi hamda investitsion faoliyatning shaffofligi va ishonchliligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, eskrou mexanizmi asosida bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimining joriy etilishi qurilish korxonalarini loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan talablar hamda qurilish muddatlariga qat'iy rioya qilishga undaydi.



1-rasm. Jismoniy shaxslar investitsiyalarini eskrou mexanizmi asosida xavfsiz jalb etish modeli

1-rasmda jismoniy shaxslar investitsiyalarini eskrou mexanizmi asosida xavfsiz jalb etish modeli keltirilgan bo'lib, u qurilish sohasida investitsion mablag'larni jalb etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan institutsional yondashuvni ifodalaydi. Mazkur model investor (jismoniy shaxs), vakolatli tijorat banki, qurilish korxonasi hamda davlat texnik nazorat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bosqichlar asosida tartibga soladi.

Modelga muvofiq, investor mablag'lari bevosita qurilish korxonasiga emas, balki vakolatli tijorat bankida ochilgan eskrou hisobvaraqlarida jamlanadi va qurilish jarayoni davlat texnik nazorat organlari tomonidan tasdiqlangan bosqichlarga muvofiq bosqichma-bosqich moliyalashtiriladi. Ushbu yondashuv quruvchining mablag'lardan mustaqil foydalanish imkoniyatini cheklab, investitsiya mablag'larining maqsadsiz sarflanishi hamda moliyaviy firibgarlik xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shu tariqa, eskrou mexanizmi asosida moliyalashtirish tizimining joriy etilishi qurilish jarayonida moliyaviy intizom va shaffoflikni ta'minlab, jismoniy shaxslar investitsiyalarini himoya qilishning samarali institutsional modelini shakllantiradi hamda uy-joy qurilishi sohasida investitsion muhitning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv uy-joy qurilishi jarayonida qo'llanilayotgan moliyalashtirish mexanizmlarini yanada chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, investorlar mablag'larini himoya qilish hamda qurilish loyihalarining moliyaviy shaffofligini ta'minlash nuqtai nazaridan an'anaviy ulushli moliyalashtirish tizimi va eskrou mexanizmi o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, an'anaviy ulushli moliyalashtirish tizimi qurilish loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim moliyaviy risklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu sababli eskrou mexanizmini joriy etish investorlar mablag'larini himoya qilishning muhim institutsional vositasi sifatida qaralmoqda. Quyidagi jadvalda uy-joy qurilishida qo'llanilayotgan an'anaviy ulushli moliyalashtirish tizimi hamda eskrou mexanizmi o'rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan.

1-jadval. Uy-joy qurilishida an'anaviy ulushli moliyalashtirish tizimi va eskrou mexanizmining taqqoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	An'anaviy ulushli moliyalashtirish tizimi	Eskrou mexanizmi asosidagi moliyalashtirish
Mablag'larning saqlanishi	Investor mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri quruvchiga o'tkaziladi	Mablag'lar vakolatli tijorat bankida eskrou hisobvarag'ida saqlanadi
Moliyaviy nazorat	Quruvchi tomonidan mustaqil boshqariladi	Tijorat banki va nazorat organlari tomonidan nazorat qilinadi
Investor mablag'lari xavfsizligi	Xavf darajasi nisbatan yuqori	Xavf darajasi sezilarli darajada kamayadi
Mablag'lardan foydalanish tartibi	Mablag'lar nazoratsiz yoki bir martalik sarflanishi mumkin	Qurilish bosqichlariga muvofiq bosqichma-bosqich moliyalashtiriladi
Qurilish muddatlariga rioya qilish	Muddatlarning buzilishi ehtimoli mavjud	Bank nazorati tufayli muddat intizomi kuchayadi
Investitsion muhit	Investorlar ishonchi nisbatan past	Investorlar ishonchi va investitsion jozibadorlik oshadi
Moliyaviy shaffoflik	Cheklangan	Yuqori darajada ta'minlanadi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eskrou mexanizmi uy-joy qurilishi jarayonida investorlar mablag'larini himoya qilishga qaratilgan samarali moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda investor mablag'larini tijorat banklari nazorati ostida saqlanib, qurilish jarayonining belgilangan bosqichlariga muvofiq bosqichma-bosqich moliyalashtiriladi. Natijada mablag'larning maqsadsiz sarflanishi, qurilish muddatlarining buzilishi hamda investorlar huquqlarining buzilishi bilan bog'liq risklar sezilarli darajada kamayadi.

Shu sababli eskrou mexanizmini joriy etish uy-joy qurilishi sohasida moliyaviy shaffoflikni oshirish, investitsion jarayonlarning ishonchligini ta'minlash hamda investitsion muhit barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmini joriy etish investorlar mablag'larini himoya qilish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda qurilish loyihalarining shaffofligini ta'minlashda muhim institutsional vosita ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

1. Uy-joy qurilishi sohasida ulushli moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida eskrou hisobvaraqlari orqali loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini keng joriy etish zarur. Bu investorlar mablag'larining xavfsizligini ta'minlab, qurilish loyihalarining barqaror amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

2. Qurilish loyihalarini moliyalashtirish jarayonida tijorat banklarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish hamda eskrou hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni raqamli monitoring tizimlari bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

3. Ulushli qurilish loyihalarida quruvchi tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun qurilish ishlarining kamida 30 foizini quruvchining o'z mablag'larini hisobidan amalga oshirish talabini qat'iy nazorat qilish lozim.

4. "Shaffof qurilish" axborot tizimi imkoniyatlarini kengaytirish orqali qurilish loyihalari, ruxsatnomalar, loyiha-smeta hujjatlari hamda quruvchilarning oldingi faoliyati haqida ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish investorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.



5. Uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmi asosida moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali investorlar ishonchini oshirish, qurilish bozorida moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda investitsion muhit jozibadorligini kuchaytirish mumkin.

6. Kelgusida uy-joy qurilishi loyihalarida eskrou mexanizmlarini joriy etish bilan bir qatorda qurilish risklarini sug'urtalash hamda investitsiya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-11-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/7353734>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida." PF-219-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7851209>
3. Ling D., Brueggeman W. Real Estate Finance and Investments. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
4. Allen F., Diamond D. Financial Intermediation and Banking Theory. // Journal of Economic Perspectives. – 2000.
5. Rajan R., Zingales L. Saving Capitalism from the Capitalists. – Princeton: Princeton University Press, 2003.
6. Stiglitz J. Information and the Change in the Paradigm in Economics. // American Economic Review. – 2002.
7. Nigmatov A.A Uy-joy qurilishi sohasiga eskrou mexanizmini joriy etish orqali ulushdorlar mablag'larini himoya qilish istiqbollari. – Toshkent, 2024.
8. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 326 b.
9. Зайнутдинов Ш.Н., Нуримбетов Р.И. Ресурсная база и потенциал производства Узбекистана: использование и эффективность. // Бюллетен науки и практики. – 2017. – №10 (23). – Б. 207–212.
10. Ortikbaevich K.I. Attracting Investment Projects to the Construction Industry and Improving Their Efficiency. // SAARJ Journal on Banking & Insurance Research. – 2021. – Vol. 10, No. 1. – P. 47–53.
11. Yusupdjanova N., Karimov I. Investment Projects in the Field of Construction Materials Production. // Theoretical & Applied Science. – 2020. – P. 18–21.
12. Karimov I.O. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini aniqlashda vaqt omilining o'rni va ahamiyati. // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – 2-son.
13. Karimov I.O. Factors Affecting the Effectiveness of Investment Management. // Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation. 2024. Vol. 2, No. 4.
14. Karimova I. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. // Muhandislik va iqtisodiyot: ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal. – 2025. – 5-son. – B. 720–727.
15. Karimov I. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llash yo'llari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik ilmiy jurnal. – 2025. – 4-son. – B. 894–899.
16. Karimov I.O. Foreign Experience in Investment Management in Construction Enterprises and Ways of Its Application in Our Country. // Intent Research Scientific Journal (IRSJ). – 2025. – Vol. 4, Issue 4. – P. 6–14.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100